



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 26-iyul

361-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yo‘llar va yo‘l infratuzilmasining yaxshi holatda saqlanishini ta‘minlash hamda hududlarni obodonlashtirish bo‘yicha amaldagi mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-iyuldagi PQ-241-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 331-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

Tumandagi avtomobil yo‘llarini yaxshilash, ichki ko‘chalarni asfalt bilan qoplash va zamonaviy piyodalar yo‘lakchalarini barpo etish borasida tizimli ishlar amalga oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yo‘llar va yo‘l infratuzilmasining yaxshi holatda saqlanishini ta‘minlash hamda hududlarni obodonlashtirish bo‘yicha amaldagi mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-iyuldagi PQ-241-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-iyuldagi 331-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-iyuldagi 331-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Ichki ishlar vazirligi, Transport vazirligi va O‘zbekiston mahallalari uyushmasining amaldagi qonunchilikni belgilangan tartibda takomillashtirish orqali 2024-yil 1-sentabrdan boshlab quyidagi tartibni joriy etish haqidagi taklifiga rozilik berilganligi:

jismoniy shaxslar va mulkchilik shaklidan qat‘i nazar har qanday yuridik shaxs tomonidan yo‘llar, trotuarlar va boshqa yo‘l infratuzilmasi obyektlarida (keyingi o‘rinlarda - yo‘l obyekti) qurilish ishlarini olib borish, yo‘l obyektni har qanday ko‘rinishda ta‘mirlash, buzish, qazish, o‘zgartirish yoki rekonstruksiya qilish (keyingi o‘rinlarda - qurilish va ta‘mirlash ishlari) faqatgina tegishli ruxsatnoma olingandan so‘ng amalga oshirilishi;

ruxsatnomani rasmiylashtirish va berish bo‘yicha davlat xizmatlari davlat xizmatlari markazlari hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 5 kun muddatda ko‘rsatilishi;

ruxsatnoma yo‘l ob‘ektini balansida saqlovchi viloyat yoki tuman (shahar) hokimliklari yoxud boshqa tashkilotlar tomonidan, kommunikatsiya tarmoqlaridagi avariya bilan bog‘liq yoki boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda esa tuman (shahar) hokimligi tomonidan berilishi;

ruxsatnomada yo‘l ob‘ektida qurilish va ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish huquqi berilgan shaxs, qurilish va ta‘mirlash ishlarini amalga oshirishning maqsadi va muddati, ruxsatnomaning

haqiqiylikini tekshirish imkonini beruvchi QR-kod, shuningdek, ushbu muddat ichida yo‘l obyektining avvalgi holatini tiklamaslik tegishli ma‘muriy va fuqaroviy javobgarlikka sabab bo‘lishi haqida ogohlantirish ko‘rsatilishi belgilanganligi;

yo‘l obyektida qurilish va ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish vaqtida ruxsatnoma hamma uchun ko‘rinadigan joyga ilib qo‘yilishi yoki har qanday shaxsning birinchi talabiga ko‘ra taqdim etilishi shart hisoblanishi belgilanganligi;

qurilish va ta‘mirlash ishlari amalga oshirilayotgan joyda xavfsizlik choralari ko‘rish mas‘uliyati ruxsatnoma berilgan shaxs zimmasiga yuklatilganligi;

ruxsatnoma olmasdan turib yo‘l obyektida qurilish va ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish, qurilish va ta‘mirlash ishlari maydonida belgilangan tartibda ruxsatnomani ilib qo‘ymaslik yoki taqdim etmaslik, qurilish va ta‘mirlash ishlari amalga oshirilayotgan joyda xavfsizlik choralari ko‘rmaslik, shuningdek, qurilish va ta‘mirlash ishlari yakunlangandan so‘ng yo‘l obyektining avvalgi holatini tiklash bo‘yicha majburiyatni bajarmaslik qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishi belgilanganligi;

Belgilanishicha:

yo‘l obyektida qurilish va ta‘mirlash ishlari amalga oshirilganidan so‘ng uning avvalgi ko‘rinishini tiklamaslik holati yuzasidan ruxsatnoma bergan tashkilot yoki hududiy profilaktika inspektori ruxsatnomada nazarda tutilgan qurilish ishlarini amalga oshirish muddati tugagan kundan e‘tiboran 10 kunlik muddatda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish va yetkazilgan moddiy zararni undirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rishi shartligi;

yo‘l obyektiga yetkazilgan moddiy zarar miqdori yo‘l obyektini balansida saqlovchi mahalliy hokimliklar yoxud boshqa tashkilotlar tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlanishi;

ruxsatnoma olmasdan turib yo‘l obyektida qurilish va ta‘mirlash ishlarini amalga oshirganlik yoki yo‘l obyektining avvalgi holatini tiklash bo‘yicha majburiyatni bajarmaslik holati bo‘yicha tegishli dalillarni taqdim qilgan holda huquqbuzarlik aniqlanishiga faol yordam bergan shaxslarga undirilgan jarimaning 50 foizi miqdorida mukofot puli berilishi belgilanganligi;

Hududlar qiyofasini yaxshilash maqsadida eksperiment tariqasida 2024-yil 1-sentabrdan 2025-yil 1-sentabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlari belgilab beradigan muayyan hududda quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar amalga oshirishi belgilanganligi;

fuqarolar va yuridik shaxslarning ularga tegishli bino va inshootga tutash hududlarni obodonlashtirish borasidagi mas‘uliyati ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali har bir mahallada mahalla raislari tomonidan tushuntirilishini tashkil qilish belgilanganligi;

ko‘p qavatli uylar hovlisi va atrofi, yo‘l hamda ko‘cha chetlarining obodonlashtirilgan namunaviy ko‘rinishini tasdiqlash belgilanganligi;

yo‘l va ko‘cha chetlaridagi bo‘sh yerlarni ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha dastur tasdiqlash belgilanganligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlari mazkur bandda nazarda tutilgan chora-tadbirlar o‘z vaqtida va samarali tashkil etilishini ta‘minlashi belgilanganligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar) hokimlari boshchiligida hududiy ichki ishlar organlari va boshqa mutasaddi idoralar

rahbarlari ishtirokida ishchi guruhlar tuzilib, ular zimmasiga yo‘llar va ko‘chalarga o‘zboshimchalik bilan to‘siq o‘rnatish holatlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazish va bartaraf etish hamda aybdor shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlik masalasini hal etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi yuklanganligi;

mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilanganligi e’tiborga olinsin.

3. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi, tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi, tuman yo‘llari foydalanish davlat muassasasi, tuman obodonlashtirish boshqarmasi, tuman ichki ishlar bo‘limi hamda boshqa manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yo‘llar va yo‘l infratuzilmasining yaxshi holatda saqlanishini ta’minlash hamda hududlarni obodonlashtirish bo‘yicha amaldagi mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-iyuldagi PQ-241-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov